

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(61 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(61 KB\)](#)

Qoraqalpog'iston Respublikasida VII innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasining hududiy taqdimotida Vazirlar Kengashining Raisi B.Yangibaevning bayonati

Hurmatli yarmarka ishtirokchilari!

Bugun Respublikamizda g'oyatda tantanali, muhim va esda qolarlik voqea bo'lib o'tmoqda. Bugungi yarmarkamizda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ilmiy tadqiqot markazlari, xo'jalik birlashmalari, ishlab-chiqarish tashkilotlari va oliy ta'lim muassasalari tadqiqotchilari o'z ishlanmalari, innovatsion g'oyalari, loyihalari va yangi ishlab chiqilgan texnologiyalari bilan ishtirok etmoqdalar.

Bundan tashqari, Yarmarkamizda - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo'mita apparat rahbari **Odilxo'ja Raimxo'jaevich Parpiev** va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining o'rinbosari **Botir Shukurullaevich Usmonov** hamda **O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti va Toshkent Avtomobil yo'llari instituti** tadqiqotchilari va boshqada ilmiy-tadqiqot muassasalarining xodimlari o'zlarining innovatsion g'oyalari va ilmiy ishlanmalari bilan ishtirok etmoqdalar.

Shuningdek, yarmarkamizda respublikamizning ommaviy axborot vositalari xodimlari ham ishtirok etmoqdalar

Hurmatli yarmarka ishtirokchilari!

O'zbekiston Respublikasi VII innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy taqdimotini ochiq deb e'lon qilamiz.

Hurmatli Yarmarkamiz ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan mazkur Innovatsion ishlanmalar ko'rgazmasi tobora an'anaga aylanib bormoqda.

Albatta, mazkur tadbirlar ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlab, ixtiro etilgan yangi texnologiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbir etilishi bilan Respublikamizning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim rol o'ynashi, so'zsiz.

Prezidentimiz tabirlari bilan aytganda, Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni yuksaltirish va undan yanada samarali foydalanishni tashkil etish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. XXI asrda mamlakat iqtisodining o'sishi ilmiy-texnika taraqqiyotining yetakchi roli intellektual faoliyat natijalarini qo'llash asosida ta'minlanadi.

Yurtimizning har tomonlama rivojlanish yo'lining o'ziga xosligining asosiy omili - ishlab chiqarishning texnologik darajasi va raqobatbardoshligini yuksaltirish, innovatsion mahsulotning ichki hamda tashqi bozorlarga chiqishini ta'minlash, ichki bozorda import qilinadigan mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan almashtirish, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot tuzilmasini shakllantirish hisoblanadi.

Shu tariqa, iqtisodiy sohada innovatsion faoliyatning mazmunini ishlab chiqarish sohasida biron-bir yangilikni yaratish hamda uni amaliyotga joriy etishda ifodalanadi.

Aytib o'tish joizki, ushbu yo'nalishda respublikamizda amalga oshirilgan va oshirilayotgan amaliy va innovatsiya loyiha ishlari uchun ajratilayotgan davlat grantlari, bugungi kunda o'zining ijobiy samarasini yaqqol namoyon etmoqda.

Bunga misol tariqasida, fundamental, amaliy va innovatsion loyihalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari muvaffaqiyatli olib borilayotganligini ko'rsatib o'tsak bo'ladi.

Ushbu ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari sifatida bugungi yarmarkada tadqiqotchi-olimlarimiz tomonidan 150 ga yaqin ilmiy-innovatsion ishlanmalar taqdim etilgan.

Mazkur ishlanmalar bo'yicha yarmarka davomida bajaruvchilar va buyurtmachilar orasida taxminan 500 mln. so'm mablag' qiymatiga ega bo'lgan sharnomalar tuzish mo'ljallanmoqda.

Hurmatli yarmarka ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

Yarmarkamizda ishtirok etayotgan olimlarimizning tadqiqot ishlariga qisqacha to'ralib o'tadigan bo'lsak, xalqimizning turmush sharoitida kerakli bo'lgan, og'ir mehnat shakllarini yengillashtiradigan, kam mablag' sarflash evaziga ko'p foyda va daromad olishga yo'naltirilganligini aytib o'tishimiz maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Masalan, Bugungi yarmarkamizda **O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi** - respublikamiz iqtisodiyoti va xalq xo'jalik sohalari uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan g'oya va loyihalar, jumladan, muqobil energiyadan foydalanish, mahalliy xom-ashyodan mineral o'g'it ishlab chiqish, qurilish materiallari, chiqindilarni qayta ishlash, mintaqa to'proq-iqlim sharoitiga moslashgan ekin turlarini tadqiq qilish, ma'naviy me'roslarimizni to'plash va saqlash bo'yicha 20 ga yaqin yangi g'oya va ishlanma texnologiyalari bilan;

Oliy ta'lim muassasalari - «Qoraqalpog'iston sharoitida Shirinmiya ildiz-xom-ashyosini yetishtirish texnologiyasi», «Qoraqalpog'iston Respublikasida topinambur o'simligini yetishtirishning agrotexnikasi», «Irrigatsiya tizimlari uchun havza boshqarmalarida suv resurslarini boshqarish uchun ma'lumotlar bazasi», iqtisodiyotning har sohalari uchun dasturiy ta'minot, o'qitishning ilg'or texnologiyalari va yangi zamonaviy o'quv adabiyotlari", oliy va o'rta maxsus ta'limi va maktablar, sog'liqni saqlash vazirligi, mahalla fondlari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya va Iqtisodiyot vazirliklari, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbektelekom milliy kompaniyasi, O'zbekiston havo yo'llari, Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi uchun mo'ljallangan o'quv va metodik qo'llanmalar;

Shuningdek, Respublikamizda sho'r to'proq sharoitida Orol dengizi qurishining g'oz'a hosildorligi va to'proq unumdorligiga ta'sirini aniqlash va zarur agrotexnologiyalarni ishlab chiqish, Sho'r to'proq sharoitida dehqonchilikni biologik usulda yuritish yo'llari, Sabzavot-poliz ekinlarida zararkunandalarga qarshi takomillashtirilgan kurash tadbirlarini qo'llash, Ko'zgi bug'doy "Krasnodar-99" navi ekinlarining fitosanitar holatini yaxshilashda soyadan keyin ekish, kabi qishloq ho'jaligida foydalanishga mo'ljallangan 100 ga yaqin ishlanmalari bilan;

Savdo sanoat-palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi - muqobil energiya manbai yo'nalishida, yog'och chiqindilarini qayta ishlatish orqali presslangan o'tin mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek, an'anaviy hisoblangan energiya manbalariga muqobil tarzda yangi mahsulotlar turlarini ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning boshqa sohalari samarali foydalanish mumkin bo'lgan 20 dan ortiq ishlanmalari bilan;

Toshkent Irrigatsiya Melioratsiya Instituti qoshidagi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali - Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida suvdan foydalanish tarmog'ida ko'p yillar davomida mavjud muammolarni hal qilish, suvdan tejab foydalanish bo'yicha yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga tadbir etish bo'yicha, Amudaryo quyi qismida suvning kamayib ketishiga bog'liq muammolarni ijobiy hal qilish, paxtani sug'orishning yangi texnologiyasi, har bir gektar yerdan 1,5- 2,0 ming kub metr suvni tejab qolish, Respublikamiz yer sharoitlarini hisobga olgan holda tomchilatib sug'orish texnologiyasini bizning sharoitga moslashtirib ishlab chiqarishga mo'ljallangan innovatsion g'oyalari bilan ishtirok etishmoqdalar.

Hurmatli yarmarka ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

Mazkur yarmarka - iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi talabni innovatsiya sohasidagi takliflar bilan uyg'unlashtirishning amaldagi maydonchasi, innovatorlar va innovatsiya loyihalari investorlari o'rtasidagi bevosita amaliy aloqa vositasi hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu tadbir oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik tashkilotlarining texnologiya va ishlanmalarini namoyish etish, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tajriba almashish, istiqboldagi vazifalarni belgilash, ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda potentsial xaridorlar bilan bevosita, to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkonini beradi.

Shu bois, yarmarka chog'ida erishilayotgan kelishuvlar natijasida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va servis sohalari ixcham va zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, yuqori samaradorlikka erishiladi.

Sababi, Yarmarkaga qo'yilgan ishlanmalarning deyarli barchasida:

Mahalliy xom-ashyolar asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish;

Energiya va resurs tejamkor texnologiyalar, ekologiya;

Quyosh va qayta tiklanuvchi energiya manbalari, binolarni lokal isitish va yoritish tizimlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi va madaniy me'rosi;

Paxtani qayta ishlash vositalari va sanoatni rivojlantirish yangi texnologiyalari;

Meva va sabzavotlarni saqlash, qayta ishlash, konservalash va quritish;

Oziq-ovqat ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari, ichimlik suvi va ekinzorlarni sug'orish;

Sanoat va aholi turar-joylari uchun qurilish materiallari ishlab chiqarish;

Chiqindilarni qayta ishlash;

Ekinlarning yangi hosildor navlarini yaratish, to'proq unumdorligini oshirish;

O'simliklarni zararkunandalardan ximoya qilish tizimini shakllantirish;

Qishloq xo'jaligida chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik va parrandachilikni rivojlantirish;

energiya tejamkorligi, muqobil energiya vositalaridan samarali foydalanishga doir innovatsion ishlanmalar qo'yilgan.

Tadbir davomida fermer xo'jaliklari, sanoat korxonalari va tashkilotlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari vakillari bilan texnologiya va ishlanmalar mualliflari o'rtasida shartnomalar imzolanadi va yarmarka doirasida respublika fermer xo'jaliklari uyushmasi, sanoat korxonalari va tashkilotlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik doirasida faoliyat yuritayotgan sub'ektlar namoyish etilayotgan innovatsion ishlanmalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqada viloyat iqtisodiyoti tarmoqlariga joriy etish maqsadida mualliflar bilan shartnomalar tuziladi.

Aziz do'stlar! Yuqorida tilga olingan ezgu-maqсадlar yo'lida tashkil etilgan yarmarka va anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman!

Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo'lidagi ishlaringizga omad, barchalaringizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat yor bo'lsin!

E'tiborlaringiz uchun rahmat!

13 mart, 2014 yil

Nukus shahri, 2-sonli sport majmuasi

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)